SIRDARYO VILOYATI MIRZAOBOD TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 26-dekabr | 440-9-125-Q/24 | Mirzaobod tuman hokimligi

Mirzaobod tumani hududidagi umumiy ovqatlanish joylari hamda savdo do‘kon (majmua)larda “To‘xtab turish” uchun yo‘l belgilari o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2013-yildagi 15-son qonun hujjatlari to‘plami 197-moddasi, 2015-yildagi 52-son 645-moddasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek tegishli vakolatga ega bo‘lmagan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan yo‘l qoplamalarini buzish, o‘zgartirish yoki zarar yetkazish, ifloslantirish, yo‘l belgilarini, svetoforlarni va harakatlanishni tashkil etishning boshqa texnik vositalarini o‘zboshimchalik bilan olib tashlash, o‘rnatish, to‘sib qo‘yish, shikastlantirish, yo‘llarda harakatlanishga to‘sqinlik qiluvchi narsalarni qoldirish hamda “sun’iy notekislik” qurilmalarini o‘rnatish ishlari soni ortib borayotganligini inobatga olib, Mirzaobod tumani hududidagi umumiy ovqatlanish joylari, savdo do‘kon (majmua)larda avtomobillarning harakatini tartibga solish maqsadida, tuman Adliya bo‘limining 2024-yil 28-oktabrdagi 488/8-sonli, tuman Ichki ishlar bo‘limining 2024-yil 13-noyabrdagi 34/3/53-sonli xatlariga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. Tuman Adliya bo‘limining 2024-yil 28-oktabrdagi 488/8-sonli hamda tuman Ichki ishlar bo‘limining 2024-yil 13-noyabrdagi 34/3/53-sonli xatlari inobatga olinsin.

2. Mirzaobod tumani hududidagi umumiy ovqatlanish joylari, savdo do‘kon (majmua)larda 5.15-bandi ya’ni “To‘xtab turish joyi” yo‘l belgilari o‘rnatishga ruxsat etilsin.

3. Tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi hamda tuman Obodonlashtirish boshqarmasi rahbarlari ushbu yo‘l belgilari o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman Yo‘l xarakati havfsizligi bo‘limi rahbari R.Sadikovga mazkur avtomobil yo‘lida harakat xavfsizligini ta’minlash va yo‘l transport hodisalarini oldini olish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati (B.Djanikulov), mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini tashkillashtirsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Z.Abduvoxidov zimmasiga yuklatilsin.

7. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **O.Raxmonkulov**